



Uzbekiston Respublikasi maktabgacha
va maktab ta'limi vazirligi

hokimligi

maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

maktabgacha va

maktab ta'limi tasarrufidagi

-maktabgacha ta'lim tashkiloti

tayyorlov kursini tashkil etuvchi

ning

takomillashtirilgan "Kamolot" dasturini

o'quv dasturi asosida

"Ehtiyotkor piyoda" mavzusida

tashkillangan

FAOLIYAT ISHLANMASI

(Noyabr oyining 2-haftasi)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

+99890-530-88-18 nomerga telegramdan yozishingiz yoki telegramdan jek456 izlab telegramga yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

Hujjat word variant doc formatda beriladi.

Tayyorlov guruhlarga noyabr oyi 2-hafta faoliyat ishlanmani to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:
@maktabgacha_tt

Narxi: 5000

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Bu hujjatni hech kimga tarqatmaslik sharti bilan olishingiz mumkin.

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet veb-saytlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

Guruh: Maktabga tayyorlov guruhi.

Oy mavzusi: "Transport.Yo'l xarakati qoidalari.

Hayot xavfsizligi asoslari".

Hafta mavzusi: Ehtiyotkor piyoda haftasi.

Ta'limiy faoliyat maqsadlari:

Ta'limiy tarbiyalanuvchilarga piyoda so'zining ma'nosi va uning vazifalarini tushuntirish, ularning so'z boyligini oshirish;

Bolalarni svetofor bilan tanishtirish, she'r va topishmoq yordam berishni rivojlantirish;

Tarbiyalanuvchilarda ehtiyotkor piyoda bo'lish ko'nikmasini shakllantirish, yo'l xarakati qoidalariga amal qilishni o'rgatish.

Kerakli jihozlar: O'yinchi qog'ozlar, AKT.

YO'L QOIDALARI - UMR FOYDASI

YO'L BELGILARINI O'RGANI!

YO'LDAN O'TISHGA YORDAM BERINGLAR

YO'L HARAKAT QOIDALARIGA AMAL QIL!

SVETOFOR CHIROQLARIGA AMAL QIL!

BELGILANGAN JOYDAN O'T!

Ta'limiy faoliyatning borishi:

Tarbiyachi: - Assalomu alaykum, mening qiziquvchan bolajonlarim. Bolalar, sizlar mashinalarni juda yaxsh ko'rasizlar. Qani, kim menga O'zbekistonimda ishlab chiqariladigan mashinalar nomini aytib beradi?

1-bola: - "Nexia", "Damas", "Spark", "Kaptiva".

Tarbiyachi: - Bu mashinalar hammamizning uzog'imizni yaqin qiladi. Ammo ana shu mashinalar ham ma'lum bir qonun-qoidalar asosida harakatlanadi. Yo'llar- dagi odamlar esa piyoda deb ataladi va odamlar ham, albatta, yo'l harakati qoidalariga amal qilishlari zarur. Bolalar, endi diqqatingizni monitorga qarating, u yerda nimani ko'ryapsiz?

Bolalar: - Svetoforni ko'ryapmiz.

Tarbiyachi: - Uning ranglari qanaqa ekan?

Bolalar: - Qizil, sariq, yashil.

Tarbiyachi: - Svetofor qanday shaklda ekan?

Bolalar: Dumaloq shaklda ekan.



Tarbiyachi: - Svetoforlar avtomobillar tirband va piyodalar gavjum bo'lgan ko'chalarda qo'yiladi. Svetoforning oldidagi yo'lga chizilgan zebra, ya'ni oq va qora chizilgan yo'llar harakatlanadi. Qizil chiroq yonganda piyodalar to'xtab turadi, sariq yo'llar yonganda tayyorlanadi, yashil yonganda esa yurishi mumkin. Avtomobillar harakatlanadi. Bolalar ko'chadan o'tayotganda ehtiyot bo'lib o'tish lozim, nima yo'l oldida o'tish mumkin emas.

Tarbiyachi: - Bolalar sizlar bilan o'yin o'ynaymiz. O'yinda bir bola svetofo, ikki bola esa avtomobil, uch bola haydovchi vazifasini bajaradi. O'yin shartiga ko'ra, yol qoidasiga amal qilib o'tish va haydovchilar o'yindan chetlashtiriladi.

Tarbiyachi: - Bolalar engil avtomobillar bilan birga avvaldan kesib tayyorlab qo'yilgan doira shakllarda o'yin o'ynaymiz.

(Bolalar svetofo yasaydi)

Tarbiyachi: - Bolajonlar, engil avtomobillar haqidagi svetofo haqidagi she'rini o'qib bermoqchiman.



Uch ko‘zli narsa to‘g‘risida

Bu narsaning Uchta ko‘zi,

Bitta Boshi bor.

Boshi - oqil,

Ko‘zlarining Zo‘r qarashi bor.

Qarab tursang, Ko‘z qisadi,

Qizil va sariq.

So‘ngra ko‘z yashil ko‘z-la Boqadi aniq.

Galmaqad boqib bizga.

Birinchisi:

Ikkinchisi:

Yana qittayam tur!

Uchinchisi:

To‘xta! - deya boshlaydi.

Yurishingga Sening uch ko‘zlarincham yo‘q!

Odam emas,

Tramvaymi Yoki bo‘lsang ot.

Unday bo‘lsa O‘taverdin,

Mayli, Marhamat.

Birinch ko‘z So‘ndi.

Ikkinchi ko‘z So‘ndi.

Oxirida Mana endi Uchinch ko‘z Yondi.

Yashil chiroq Yonganida O‘chdi ulovlar.

Uch ko‘zlini Svetofor Deydi birovlar.

Tarbiyachi: - Bolajonlar, endi esa mana bu savolga javob beradilar: Svetofor bizga nima uchun kerak ekan?

Svetoforning qizil rangi yonganda haydovchilar nima qilishi kerak? Svetoforning qizil rangi yonganda piyodalar nima qilishi kerak?

Piyodalar svetoforning qaysi rangi yonganda harakatlanishi mumkin? Hech qaysi rang yonganda harakatlanishi kerak

NOYABR. IKKINCHI HAFTA «EHTIYOTKOR PIYODA HAFTASI»

Tayyorlov guruh

Qurish va konstruksiyalash, matematika markazi

Piyodalar yo‘lagi

Maqsad: bolalar geometrik shakllarni farqlashni, piyoda yo‘lagining nima uchun Keraklini yo‘lakchani qurishda qancha geometrik shakllardan foydalanilganini aytib beradilar.

Kerakli jihoz va materiallar: geometrik, hamda qurilish uchun Kerakli shakl va jihozlar, yo‘l.



Faoliyatning borishi:

1. Piyoda mavzusidagi rasmlarni kuzatish.
2. Bolalar bilan piyodalar yo‘lagini qurish rejasini tuzish.
3. Geometrik shakllardan piyodalar yo‘lagini qurish.
4. Piyodalar yo‘lagini o‘lchash.
5. Bolalar ishini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga oq qog‘ozdan lentachalar kesib, piyoda yo‘lakchasini yasashni tavsiya etishi mumkin.

E‘tiborga ega jihati: bolalarning jamoada ishlashiga, qurilishda tozalikka va hayotiy ehtiyoqlariga amal qilishiga ahamiyat beriladi.

Syuzet va sahnalashtirish markazi

«Men piyoda yo‘lagini o‘yinataymi?»

Maqsad: bolalarning yo‘l qo‘zg‘alarini tuta olishga, transport vositalarining xavfli ekanligini tushunishga, piyodalar yo‘lagini farqlashga, kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarishga o‘rganish.

Kerakli jihoz va materiallar: yo‘l belgilari, mashinalar, furajka, yo‘l ko‘rsatish tayoqchasi.

Faoliyatning borishi:

1. Mavzuga oid mavzularni kuzatish.
2. Bolalar bilan sayrga borish joyini tanlash.



3. Qog'oz kartondan ko'rsatkich va belgilarni tayyorlash.
4. Bolalar Tayyorlovsida rollarni taqsimlash.
5. O'yin ishtirokchilarining diqqatini yo'lni to'g'ri kesib o'tishga, yo'l belgilariga rioya etishga qaratish.
6. Jamoa joylarida tartib saqlash, yo'l belgilari haqidagi bilimlarini mustahkamlash.
7. O'yin muhokamasi va bolalarni rag'batlantirish.

Qo'shimcha:

Tarbiyachi bolalar bilan «Daryo bo'y shaharda» mavzuli sahnalashish mumkin.

bog'chagacha xaritasini jamoat joylarida jamoat tartibi qoidalariga rioya qilish, atrofga e'tiborli bo'lish, tozalikni saqlash,



piyodalar yo'lkasidan yurish, katta yo'lga ketmaslik, piyodalar yo'lkasi yo'lovchilar uchun ajratilgan bo'lib, piyodalar yo'lga ketmagan taqdirda katta yo'lning chetidan mashinalar qatnoviga qarama-qarshi yo'lning mavjudligini tushuntiradi.

E'tiborga molik jihati: ijodiy qobiliyatni rivojlantirish va xavfsizligi qoidalariga amal qilinidi.

Til va nutq markazi

Xavfli holatlar tahlili

Maqsad: bolalar mustaqil qaror chiqarib, vazifalarni ketma-ket bajarib, xavfli holatlarni farqlash va ularga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Atrofdagi joy, binolarning nomlarini bilishga o'rganadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: turli xil holatlar ko'rinishidagi ob'ekt (ko'cha, maydoichalari, hiyobon, mahalla)larning rasmlari, o'yinchoqlar.

Faoliyatning borishi:

1. Turli xildagi ko'rgazmali qurollar, buyumlar, pazllar va rasmlarni tayyorlash.
2. Plakat va rasmlar bilan ishlash.
3. Xavfli holatlar tasvirlangan rasmlarnamoyishi va holatlarni bolalar bilan muhokama qilish.
4. Hiyobon, ko'cha va o'yin uchun xavfsiz joylar tasvirlangan rasmlarga o'z fikrini bildirish.



5. Lug‘at boyligini boyitish.

Qo‘shimcha: tarbiyachi bolalarga ko‘chadagi harakat qoidalarini o‘rgatishda davom etadi.

E‘tiborga molik jihati: mantiqiy fikrlash, tabiiy va ijtimoiy hayotning o‘zgarishiga ahamiyat beriladi.

Fan va tabiat markazi

**«Havoni qidirish» tajribasi
(ekologik tarbiya)**

Maqsad: bolalar havoning ajablanarli xususiyatlari bilan tanishadi. «Havoni qidirish» mavzusidagi tajribani o‘tkazishga harakat qiladilar (bankadagi haroratni o‘lchash, havo sharlari, sovun ko‘pigi, sovuq kunlarda havo chiqarish), inson hayotida havoning o‘rni va ahamiyatini tushunadilar.

Kerakli jihoz va materiallar: yelim paket, shar, mavzu bo‘yicha rasm, «Havoni qidirish» mavzusidagi slaydlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Havoni qidirish» mavzusidagi rasmni kuzatish.
2. Havoni qidirish bo‘yicha amaliy tajriba o‘tkazish.
3. Amaliy tajriba natijalaridan inson hayotida havoning o‘rni va ahamiyati haqida suhbat.
4. Bolalar ishini muhokama qilish va rag‘batlantirish.

Qo'shimcha: toza havo haqida she'r o'qib beradi.

E'tiborga molik jihati: tajriba o'tkazish davomida salomatlikni saqlash qoidalariga rioya qilish, tasavvurlarni kengaytirish va qo'l mayda motorikasining rivojlanishiga ahamiyat beriladi.

San'at markazi

O'z usulimiz bilan svetofor yasaymiz

Maqsad: bolalar kartondan svetofor yasashni biladilar, tashlandiq materiallardan foydalana olish malakalarini rivojlantiradilar, o'z yasagan svetofoiri va uni qayerga o'rnatish Kerakligini tushuntirib bera oladilar.

Kerakli jihoz va materiallar: svetafor tasvirlangan rasmlar, qog'oz, karton, qaychi, yelim, quti, xarakteristik qismlar.

Faoliyatni bajarish:

1. «Shahardagi svetofor» mavzudagi rasmni ko'rish.
2. Svetofor yasashni stol ustida bajarish.
3. Qattik qora kartondan to'rtburchak shakl kesib olish.
4. Doyra shaklidagi shablonni qora karton va to'rtburchakda 3 ta doyra hosil qilish.
5. Kesilgan doiralarga qizil, sarngil va yashil rangdagi kartonlardan doiralarni kesish va qora kartondagi teshiklarga yopishtirish.
6. To'g'ri to'rtburchakning yon tomonlaridan qora kartondan kesib tayyorlangan to'rtburchaklarni yopishtirish.
7. Harakatlantiruvchi qismlar o'rnatish.
8. Bolalarning faoliyati natijasini muhokama qilish.

Qo'shimcha: ko'rgazma tashkil etish, mavzu bo'yida she'r o'qib ijro etish.

E'tiborga molik jihati: bolalarning gigienik talablarga rioya qilishini, bir-birlarini hurmat qilishiga, bog'lanishli nutq va qo'l motorikasining rivojlanishiga ahamiyat beriladi.

**BOLAJON
YUGURMA
HAVFLI !**

